

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY SIYOSIY-HUQUQIY QARASHLARINING JADID G‘OYALARI SHAKLLANISHIGA TA’SIRI

Rasulova Zebiniso Xakim qizi

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Lingvistika yo‘nalishi 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiyning siyosiy-huquqiy qarashlari va ularning jadidchilik g‘oyalarining shakllanishiga ta’siri o‘rganilgan. Uning siyosiy-huquqiy qarashlari konstitutsiyaviy boshqaruv, qonun ustuvorligi, inson huquqlari va hurriyat kabi tamoyillarga asoslanganligi, jamiyatni isloh qilish, ma’rifatni yoyish va adolatli ijtimoiy tuzumni shakllantirishga intilganligi, shuningdek, uning g‘oyalari jadidchilik harakatining mafkuraviy asoslarini tashkil etganligi va Turkistonning siyosiy va ijtimoiy taraqqiyotida muhim rol o‘ynaganligi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Jadidchilik harakati, siyosiy-huquqiy qarashlar, konstitutsiyaviy boshqaruv, qonun ustuvorligi, inson huquqlari, hurriyat, ma’ripatvarlik.

Behbudiy – XX asr boshlarida yashab o‘tgan taniqli ma’rifatparvar, publisist va ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllangan, yangicha ijtimoiy munosabatlarni zamonaviy ilm-fanni yuksaltirish va targ‘ib qilish vositasida o‘rnatishga qaratilgan g‘oyaviy-mafkuraviy masalalarni ilgari surgan. Uning siyosiy va huquqiy qarashlari asosan islohotchilik va millat taraqqiyotiga qaratilganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Behbudiyning siyosiy-huquqiy qarashlari jadidchilik harakati g‘oyalari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, uning g‘oyaviy asoslarini tashkil qilgan desak, o‘ylaymanki, xato bo‘lmaydi. Ma’lumki, jadidchilikning asosiy maqsadi jamiyatni isloh qilish, uning savodxonligini oshirish va ilm-ma’rifatga asoslangan, millatni ma’naviy jihatdan uyg‘otishga qaratilgan zamonaviy davlatchilik asoslarini yaratishdan iborat edi.

Turkistonda ma’rifatparvarlik g‘oyalarining tarqalishi, jadid taraqqiyparvarlarining siyosiy kurash maydoniga kirib kelishida Mahmudxo‘ja Behbudiyning siyosiy qarashlari muhim o‘rin tutgan. Mahmudxo‘ja Behbudiyning 1906-yil “Xurshid” gazetasida chop etilgan “Xayrul umuri avsatuho” nomli maqolasida Chor Rossiyasidagi mavjud ijtimoiy-siyosiy hayotni va real vaziyatni tanqidiy tahlil qilgan. Unga ko‘ra, “... hozir Rusiya davlati(ning) tariqi hukmronligi(ni) noqis ekanligiga hari bir xabarli kishi iqror etar. Davlat qonunlarini(ng) isloh va tajdidig‘a har kim moyildur. Ammo Rusiyadagi barcha xaloyiq boshlucha necha aslu asosg‘a bo‘lungandurlar. Bu siyosiy firqalarni(ng) har birig‘a har bir mashab va din ahlidan qo‘shulgandur. Chunonchi, nasoro, yaxud, muslim va majusiy toifalarini(ng) ichida bu siyosiy maslag‘larg‘a moyil kishilar bordur” .

Behbudiyning davlat boshqaruviga doir qarashlari ham diqqatga molikdir. U boshqaruvning konstitutsiyaga asoslangan davlat boshqaruvini qo‘llab-quvvatlagan. U qonun ustuvorligi va inson huquqlarini himoya qilish muhim ekanini ta’kidlagan. Mahmudxo‘ja Behbudiy ma’rifatparvar, jadidchilik harakatining yirik vakili sifatida konstitusionalizm va hurriyat masalalariga katta e’tibor qaratgan. Uning qarashlari jadidchilik g‘oyalari asosida shakllangan bo‘lib, jamiyat taraqqiyotini ta’minlash uchun ma’rifat, adolatli qonunchilik va inson huquqlarini himoya qilish zarurligini ta’kidlagan. Behbudiy konstitutsiyaviy boshqaruvni jamiyat taraqqiyotining asosiy garovi deb bilgan. U o‘z asarlarida va matbuotdagi chiqishlarida zulmga

asoslangan mutlaq hokimiyatdan voz kechishni qo'llab-quvvatlagan. Turkiya va Yevropadagi konstitusiyaviy islohotlardan ilhomlangan holda, u quyidagi masalalarni ko'targan:

- Davlat boshqaruvida konstitutsiya va qonunlar asosida ish yuritish;
- Hukumatning xalq oldida mas'uliyati;
- Parlament tizimi orqali xalq vakillarini qonunchilik jarayoniga jalb qilish;
- Adolatli sud tizimi va inson huquqlarini ta'minlash.

Behbudiy hurriyatni insonning tabiiy huquqi sifatida ko'rgan va uni jamiyat taraqqiyotining garovi deb hisoblagan. U Turkistondagi aholining siyosiy va ma'rifiy savodxonligini oshirish orqali haqiqiy hurriyatga erishish mumkinligini ta'kidlagan. U quyidagi sohalarda hurriyatni targ'ib qilgan. Ushbu g'oyalarni amalga oshirish yo'lida Behbudiy "Oyina" gazeta-jurnallarini tashkil qilib, mustaqil fikr va erkin so'z imkoniyatlarini kengaytirishga harakat qilgan. Jadid maktablarini ochib, xalqning siyosiy-huquqiy ma'rifatini oshirish, yosh avlodni ilmi va tafakkuri erkin insonlar qilib tarbiyalashga e'tibor qaratgan. O'sha davrning eng muhim muammolaridan biri xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni, ularning ta'lim olish huquqi va ijtimoiy faolligini oshirishni qo'llab-quvvatlagan.

Behbudiyning konstitusionalizm va hurriyatga oid siyosiy-huquqiy qarashlari jadidchilik g'oyalarining shakllanishida mafkuraviy asos bo'lib xizmat qiladi. U o'z qarashlari qonun ustuvorligi, hokimiyat cheklanishi va inson huquqlarini himoya qilish orqali adolatli jamiyat qurish g'oyasini ilgari surgan. Shu orqali Turkistonning ijtimoiy va siyosiy taraqqiyotida katta ahamiyat kasb etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Хайрул умури авсатуҳо" ("Ишларнинг яхшиси ўртачасидур") // "Хуршид". 1906 йил 11 октябрь.
2. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. 2-jild. -- Toshkent: Akademnashr, 2018. -- B. 56-196.
3. Mahmudxo'ja Behbudiy. Padarkush: drama, hikoya, maqola va hikmatlar / - Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2024. - B. 77 - 133.
4. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligi. "Ta'lim islohotlari: tarix va hozirgi zamon". Toshkent, 2020.